



AMALIY BEZAK SAN'ATIDA NOZMUNCHOQLARNING O'RNI

G.S.Xoshimova

Z.I.Jurayeva

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, San'atshunoslik fakulteti,
Texnologik ta'lif yo'naliishi 206-guruh talabasi O'qituvchi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada o'zbek millatining turmush tarzida amaliy bezak san'atining o'rni qay darajada, amaliy san'at bezagini turlaridan biri bo'lmish nozmunchoqlar bilan ishslash san'ati yoshlарimizga nima beradi, undan qanday buyumlar tayyorlash mumkin va ushbu buyumlar nima uchun tayyorlanishi, hamda qayerlarda qo'llanilishi to'g'risida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Amaliy san'at bezagi, qobiliyat, buyum, bezak, nozmunchoq, dizayn, taqinchoq, san'at.

Annotation:

In this article, to what extent is the role of practical decorative art in the lifestyle of the Uzbek nation, what does the art of working with beads, which is one of the types of applied art decoration, give to our youth, what items can be made from it, and for this purpose ready, and where it will be used.

Key words: Applied art decoration, skill, object, ornament, trinket, design, jewelry, art.

Аннотация:

В данной статье, в к в образе жизни узбекской нации, что дает нашей молодежи искусством мере роль прикладного декоративно-прикладного искусствао работы с бисером, являющееся одним из видов декоративно-прикладного искусства, что из него можно делать предметы, и для чего эти предметы заготавливаются, и где они будут использоваться.

Ключевые слова: Декоративно-прикладное искусство, ремесло, предмет, украшение, безделушка, дизайн, украшение, искусство.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha muhim vazifalarni belgilab berdi. 2019-yil 19-mart kuni yurtimizning ma'naviy va iqtisodiy rivoji uchun zarur bo'lgan besh tashabbus bilan bog'liq qaror qabul qildi. Bu – yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Ayniqsa beshinchi tashabbusda xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarda tutilgan bo'lib hozirgi kunda respublikamizda 18 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan xotin-qizlar soni 3 596 406 nafarni tashkil qilmoqda. Joriy yilda 76,2 mlrd. so'm imtiyozli mablag'lar evaziga 76 198 nafar yosh xotin-qizlar ish bilan ta'minlandi, shuningdek, 15 935 nafar yosh xotin-qizlar kasb-hunarga o'rgatildi. Birinchi tashabbus esa o'sib kelayotgan yoshlarimizni san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi [1].

Ko'rishimiz mumkinki, birinchi tashabbusda san'atning barcha turlarini rivojlantirish nazarda tutiladi. Zero, san'atning har bir turi yoshlarimizni barkamol tarbiyalashda o'ziga xos mavqega ega. Chunki san'atning har bir turi insonniq ruhiyati va tafakkuriga kuchli ta'sir ko'rsatishi hech kimga sir emas. Amaliy-badiiy bezak san'ati – teatr, kino, musiqa, tasviriy san'at turlari qatori muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliy bezak san'ati sohasi, ijtimoiy va shaxsiy turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan badiiy buyumlar tayyorlash va kundalik turmush ashyolari (asbob anjomlar, mebel, mato, mehnat qurollari kiyim- kechaklar, taqinchoqlar, o'yinchoqlar va boshqalar) ni badiiy ishlash bilan bog'liq ijodiy sohalarini o'z ichiga oladi [2]. Amaliy san'at asarlari ko'z bilan ko'rish, his etish va anglashga mo'ljallangan xom ashyoning go'zalligi, qismlarning mutanosibligi, tuzilishining maromi buyumning ta'sirchan umumlashma qiyofasini ifodalaydi. Buyumda hosil bo'layotgan bezak uning obraz tuzishiga ham ta'sir etadi. Bezagi tufayli buyum amaliy san'at asariga aylanadi.

Sharqda rang-barang va yaltiroq naqshinkor bezaklar har doim ishlatilib kelingan. Xususan, ayollar kiyim va buyumlariga bezaklar yaratishda oddiy va qimmatbaho

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com



toshlar hamda munchoqlardan foydalaniladi. Bu jarayon zamonaviy tilda nozmunchoq (biser) tikish deb ataladi va san'at darajasida qabul qilinadi [3]. Nozmunchoq dumaloq, silindrsimon, ko'ptomonli shaklga ega bo'lib, shisha, metall, plastmassa va suyaklardan tayyorlanadi. U ikki tomoni tizish uchun ochiq bo'lgan mayda sharsimon ko'rinishga ega. Dumaloq shaklli nozmunchoqlar ko'p ishlataladi. Tabiiy, sintetik va armirlangan iplar nozmunchoqlarni tizish (to'qish) uchun ishlataladi. Bunda ipning rangi nozmunchoq rangiga mos bo'lishini unutmaslik kerak (1-rasm).



1-rasm. Ayollar sochiga taqish uchun mo'ljallangan taqilma (diadema)

Hozirgi kunda amaliy san'atning turlari juda ko'p. Xususan, nozmunchoqli va yaltiroq toshli amaliy bezak va taqinchoqlar kabi xillari ham bor. Bunday san'at turi bilvosita ranglar bilan bog'liq. Ish jarayonida ranglarning to'g'ri tanlanishi va nozmunchoqlarning turiga qarab ishlatalishi bezakning bezirkim bo'lishini ta'minlaydi.

Xususan nozmunchoqlardan ayollar kundalik turmushida ishlatalishga mo'ljallangan sochlarni bezash uchun har xil dizaynda tayyorlangan taqilmalar yoki zamonaviy tilda "Diadema" deb ataladi, bo'yinga taqiladigan taqilmalar, halqalar, bilaguzuk va uzuklar tayyorlash mumkin. Ayollar taqinchoqlari nafaqat zamonaviy uslubda balki milliy uslubda ham tayyorlanadi, undan o'zbek qizlarimiz kelinlik kastyumlarida keng foydalanib kelmoqda.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki amaliy san'at bezagini nozmunchoqlar bilan ishslash jarayonida yoshlarning dunyo qarashi kengayadi, ijodkorlik qobiliyati o'sishiga yordam beradi. Amaliy bezak san'ati mahsulotlarini

Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th March, 2023

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

tayyorlash mobaynida kompozitsiya qurish yasash usullariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. <https://lyceum.tma.uz/besh-muhim-tashabbus/>
2. To‘xanova T., Amaliy san’at turlari. Kasb ta’limi amaliy san’at yo‘nalishi talabalari uchun mo‘ljallangan. o‘quv qo‘llanma. Buxoro.: “Durdona”, 2020
3. Sh. Sharipov, O. Qo‘ysinov, Q. Abdullayeva. Texnologiya. Umumiyo o’rta ta’lim maktablarining 6-sinfi uchun darslik. Toshkent .: “Sharq”, 2017